


MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

IYUL/7-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
MOSCOW • RUSSIA



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyul.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

MILLIY GVARDIYA TIZIMIDA HARBIY XIZMATCHILARNI KIYIM-KECHAK BILAN TA'MINLASH TIZIMINING NAZARIY ASOSLARI	10
Omonov Usmonqul Raxmonqul o'g'li FOND BOZORLARIGA XORIJIY KAPITALNI JALB QILISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA RIVOJLANISH IMKONIYATLARI	17
Yusupova Jamila Karamatdinovna AXBOROT KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARINING TASHKLIY-HUQUQIY VA ILMIY NAZARIY MASALALARI	21
Rajaboyev Shahboz Shodi o'g'li PUL MABLAG'LARI HISOBINI MOLIVAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA O'TKAZISHNING DOLZARB MASALALARI	26
Eshonqulov Akmal Qudratovich XORAZM VILOYATINING IJOBIY IMIJINI OSHIRISHDA HUDUDIY MARKETING STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISH	34
Ibadullayev Dilshad Ibragimovich OROL BO'YI MINTAQASIDA QISHLOQ XO'JALIGI VA TURIZMNI YASHIL MOLIVALASHTIRISH VA INVESTITSIYA MEXANIZMLARI: BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	40
Akramova Feruza ATMOSFERA HAVOSI MONITORINGIDA IOT SENSORLARI O'LCHASH NATIJALARINING METROLOGIK ISHONCHLILIGINI BAHOLASH VA OSHIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	52
Sobirov Anvarjon, Melibayev Maxmudjan BANK VA KREDIT MUASSASALARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI TREND MODELLARI YORDAMIDA TAHLIL QILISH VA PROGNOZLASH USULLARI	59
Nazarov Elbek PHYSALIS ALKEKENG I O'SIMLIGIDAN FLAVONOIDLARNI AJRATIB OLISHNING BIOTEXNOLOGIK USULLARI VA JARAYON PARAMETRLARINI OPTIMALLASHTIRISH	66
Xidirova Saboxat Baxrillayevna ЧИСЛЕННАЯ ОЦЕНКА РАЗВИТИЯ ЗОН КОНЦЕНТРАЦИИ НАПРЯЖЕНИЙ В МАССИВЕ ГОРНЫХ ПОРОД ПРИ ВЛИЯНИИ ПРОЦЕССОВ ДОБЫЧИ В УСЛОВИЯХ РУДНИКА «КЫЗЫЛ-АЛМА»	70
Салямова Клара, Меликулов Абдусаттар, Уралбаев Абдукахар, Бакиров Гайрат, Зухритдинов Давронбек XUSUSIY TA'LIM SOHASIDA MALAKALI KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI, IT MUTAXASSISLARINING YETISHMASLIGI VA ISHSIZLIKNING TA'LIM SIFATI HAMDA BARQARORLIGIGA TA'SIRI: ILG'OR XORIY TAJIRIBASI VA UNING O'ZBEKISTON AMALIYOTIGA TATBIQ ETILISHI	77
Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li SAND-PARTICLE-INDUCED LEADING-EDGE EROSION AND ITS IMPACT ON WIND TURBINE BLADES: A REVIEW	82
Normamatov A. A. IPAKCHILIK KLASSTERLARI UCHUN INVESTITSION BOSHQARUV MODELINI ASOSLASH	87
Elboyeva Shaxzoda Olimovna KICHIK VA O'RTA BIZNES SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK USULLARDA TAHLIL QILISH METODOLOGIYASI	94
Nazarov Nazar G'ulom o'g'li OLIV TA'LIM MUASSASALARI BOSHQARUV FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI	101
Usmanov Sarvar Nigmatovich	



РАЗРАБОТКА АДАПТИВНОГО МНОГОЗОНАЛЬНОГО АЛГОРИТМА УПРАВЛЕНИЯ FUZZY-PID ДЛЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ РАВНОМЕРНОГО РАСПРЕДЕЛЕНИЯ ВЛАЖНОСТИ В ПРОЦЕССЕ УВЛАЖНЕНИЯ ЗЕРНА.....	107
Камариддинов Шохрух Акмал угли	
SANOAT KLASSTERLARIDA "SANOAT 4.0" TECHNOLOGIYALARINI JORIY ETISH VA HAMKORLIK MODELLARI	113
Mamadaliyev Anazxon Ziyodillayevich	
SAND-PARTICLE-INDUCED LEADING-EDGE EROSION AND ITS IMPACT ON WIND TURBINE BLADES: A REVIEW	119
Normamatov A. A.	
YOSHLARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI.....	124
Xudoyberdiyev Norbek Komiljon o'g'li	
HUDUDIIY TURIZMDA XALQARO ESG MEZONLARINI MILLIY SHAROITGA MOSLASHTIRISH YO'NALISHLARI	128
Maxmudova Nodira Uktamovna	
EVALUATION OF TECHNOLOGICAL LOSSES OF HYDROCARBONS OF LIGHT FRACTIONS IN THE PROCESSES OF COLLECTION AND PRIMARY TREATMENT AT THE MUBARAK FIELDS OF OGPD.....	134
Norqulov Shohbozbek Samandar ugli	
АНАЛИЗ СИСТЕМЫ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В БАНКОВСКОМ СЕКТОРЕ УЗБЕКИСТАНА.....	140
Жумадуллаева Дурдона Шухрат кизи	
XUSUSIY TA'LIM SOHASIDA MALAKALI KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI TA'LIMNING SIFAT VA USTUVORLIGIGA TA'SIRI VA UNI TA'MINLASH YO'LLARI	145
Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI ISHTIROKCHILARI FAOLIYATI VA BOJXONA NAZORATI TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI.....	150
Kilichov Nazar Bafoyevich	
HUDUDLARDA TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING AHOLI DAROMADLARI VA BANDLIGIGA TA'SIRINING TAHLILI	157
Abdurayimov O'ktam Abdug'ani o'g'li	
GAZNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA BARQAROR RIVOJLANISH HOLATINING IQTISODIY TAHLILI VA BAHOLASH	164
Kudratkhodjaeva Ziyoda Kamol qizi	
COMPETITION IN THE INFORMATION MARKET: MONOPOLY TRENDS AND THE DIGITAL PLATFORM ECONOMY.....	169
Mo'ydinjonova Durdonaxon, Ismanov Ibrohim	
BOZOR INFRATUZILMASINING IQTISODIY MAZMUNI VA KICHIK BIZNES RIVOJIDAGI AHAMIYATI	174
Ganiyev Botir Baxtiyorovich	
MAGNIY VA KALSIY ELEMENTLARINI O'RGATISHDA O'QUVCHILARDA 4K KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	178
Esnazarov Abdiganiy Jamalatdinovich	
DATA-DRIVEN STRATEGIK MENEJMENT: MA'LUMOTLARGA ASOSLANGAN BOSHQARUVNING ZAMONAVIY KORXONALAR RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI	184
Baymuradov Shoxrux, Dilmurodov Komiljon	
YASHIL BUXGALTERIYA (GREEN ACCOUNTING) VA ESG HISOBOTLARI: RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BARQAROR RIVOJLANISHNING STRATEGIK VOSITALARI	190
Nematullayev Hamidullo, Bo'stonova Nilufar	
АНАЛИЗ ФАКТОРОВ РАЗВИТИЯ ФИНАНСОВЫХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ	196
Нуралиева Мукаддас Мамуровна	



AGROSANOAT MAJMUASIDA INVESTISIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH, OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH VA MUSTAHKAMLASH MASALALARI	201
Xakimov Rashid	
TADBIRKORLIKDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING IQTISODIY SAMARALARI	206
Salohiddinov Zuhridin Nuriddinjon o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH HOLATINI TAHLIL QILISH	212
Achilova Firuza, Zohidov Jamshid	
NAMANGAN VILOYATINING BOSHQA HUDUDLAR BILAN TOVAR VA XIZMATLAR AYLANMASI HAMDA IQTISODIY ALOQALARINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	217
Sattarov R.A.	
ОПТИМАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ ФОРМИРОВАНИЯ ФИНАНСОВЫХ РЕСУРСОВ ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ	222
Hurmurodov Kamoliddin Pirmamatovich	
OPTIK ABONENT KIRISH TARMOG'INING XIZMATLARI SAMARADORLIGI	230
Uskenbayeva Dilfuza Shuxrat qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI DEMOGRAFIK JARAYONLARINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLARNI EKONOMETRIK MODELLARINI TUZISH VA PROGNOZLASH	235
Siroj Zarina Rustambekovna	
QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHDA AGROKLASTERLARNING O'RNI VA AHAMIYATI	242
Berdiyev Abdumalik Hakimovich	
HUNARMANDCHILIK KLASSTERLARI BO'YICHA XORIJIY TAJRIBA: TURKIYA, MAROKASH VA FRANSIYA MODELLARINING QIYOSIY TAHLILI	249
Yaxshiliqov Sardor Rustam o'g'li	
BANK TIZIMIDA LIKVIDLILIK VA KAPITAL YETARLILIGI RISKLARINI BOSHQARISH MASALALARI ...	255
Qurbonov Ilhom Jumaqulovich	
O'ZBEKISTON QISHLOQ HUDUDLARIDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL OMILLARI	258
Saidakbarova Ziyoda Doniyor qizi	
BIOLOGIK AKTIVLARNI HAQQONIY QIYMATDA BAHOLASHNING KO'P OMILLI MODEL ...	266
Akhmetova Salima Seytovna	
OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SALOHİYATINI BOSHQARISHNING NAZARIY - USLUBIY JIHLTLARI	272
Gulmatov Sunnatillo Nurillayevich	
YASHIL INVESTITSİYALAR MINTAQ A IQTISODIYOTINI BARQAROR DIVERSIFIKATSİYALASH VOSITASI SIFATIDA	281
To'xtayev Maqsud Mansurovich	
TIJORAT BANKLARI O'RTASIDAGI RAQOBAT DARAJASINING STATISTIK VA EKONOMETRIK BAHOSI: RAQOBAT VA MOLİYAVIY BARQARORLIK O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK	287
Qulmetov Mansurbek Ro'zmatovich	
O'ZBEKISTONDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I MA'MURIYATCHILIGINI RIVOJLANISH QONUNIYATLARI VA UNDAGI TIZIMLI MUAMMOLAR TAHLILI	294
Turdaliyev Eldor Sho'xratjon o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA DAROMAD MANBALARI INDEKSI VA UNING RENTABELLIGIGA TA'SIRI	300
Ahmedov Komron Muhammad-Alievich	
KORPORATIV BOSHQARUV MEXANIZMLARINING ISHLASH TAMOIYILLARI VA ULARNI QURILISH KORXONALARI AMALIYOTIGA JORIY ETISH MASALALARI	308
G'iyosov Ilxom Karimovich	

UDK: 334.7:69.003

KORPORATIV BOSHQARUV MEXANIZMLARINING ISHLASH TAMOYILLARI VA ULARNI QURILISH KORXONALARI AMALIYOTIGA JORIY ETISH MASALALARI

G'iyosov Ilxom Karimovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti

Annotatsiya. Maqolada korporativ boshqaruv mexanizmlarining ishlash tamoyillari hamda ularni qurilish korxonalari amaliyotiga joriy etishning nazariy, institutsional va amaliy jihatlarini tadqiq etilgan. Qurilish tarmog'ida loyihalarning ko'p ishtirokchiligi, shartnomaviy munosabatlarning murakkabligi, investitsiyalar va risklarning yuqoriligi korporativ boshqaruvni faqat mulkdorlar manfaatlarini himoya qilish vositasi emas, balki strategik muvofiqlashtirish, shaffoflik, hisobdorlik va barqaror rivojlanishni ta'minlovchi tizim sifatida qarashni talab etadi. Tadqiqotda institutsional, tizimli va manfaatdor tomonlar yondashuvlari asosida qurilish korxonalari uchun korporativ boshqaruv mexanizmlarini joriy etish modeli hamda baholash mezonlari taklif etilgan.

Kalit so'zlar: korporativ boshqaruv, qurilish korxonalari, boshqaruv mexanizmlari, institutsional yondashuv, strategik boshqaruv, manfaatdor tomonlar, shaffoflik, hisobdorlik, ESG, iqtisodiy samaradorlik.

Abstract. This article examines the operating principles of corporate governance mechanisms and the theoretical, institutional, and practical aspects of their implementation in construction enterprises. The construction industry is characterized by the involvement of multiple stakeholders, the complexity of contractual relationships, and high levels of investment and risk. Therefore, corporate governance should be viewed not merely as a mechanism for protecting shareholders' interests, but as a system that ensures strategic coordination, transparency, accountability, and sustainable development. Based on institutional, systemic, and stakeholder approaches, the study proposes a model for implementing corporate governance mechanisms in construction enterprises, along with a set of evaluation criteria.

Keywords: corporate governance, construction enterprises, governance mechanisms, institutional approach, strategic management, stakeholders, transparency, accountability, ESG, economic efficiency.

Аннотация. В статье исследованы принципы функционирования механизмов корпоративного управления, а также теоретические, институциональные и практические аспекты их внедрения в деятельность строительных предприятий. Строительная отрасль характеризуется большим количеством участников проектов, сложностью договорных отношений, высоким уровнем инвестиций и рисков. В связи с этим корпоративное управление следует рассматривать не только как инструмент защиты интересов собственников, но и как систему, обеспечивающую стратегическую координацию, прозрачность, подотчётность и устойчивое развитие. На основе институционального, системного и стейкхолдерского подходов предложены модель внедрения механизмов корпоративного управления для строительных предприятий и критерии оценки их эффективности.

Ключевые слова: корпоративное управление, строительные предприятия, механизмы корпоративного управления, институциональный подход, стратегическое управление, заинтересованные стороны, прозрачность, подотчётность, ESG, экономическая эффективность.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida korporativ boshqaruv masalasi korxonalarining uzoq muddatli qiymat yaratish qobiliyati, investitsion jozibadorligi va raqobatbardoshligini belgilovchi muhim institutsional omillardan biriga aylandi. Ayniqsa, qurilish sohasida korporativ boshqaruvning ahamiyati boshqa tarmoqlarga nisbatan yuqori hisoblanadi, chunki qurilish korxonalari faoliyatida mulkdorlar, boshqaruv organlari, investorlar, buyurtmachilar, loyihachilar, pudratchilar, subpudratchilar, moliya institutlari, davlat nazorati organlari va yakuniy iste'molchilar manfaatlari bir vaqtning o'zida o'zaro kesishadi. Bunday sharoitda korporativ boshqaruv mexanizmlarining to'g'ri tashkil etilishi korxona ichidagi qaror qabul qilish jarayonini tartibga soladi, resurslar harakatini nazorat qiladi, loyiha muddati, sifati va xarajatlari bo'yicha intizomni ta'minlaydi.



O'zbekistonda qurilish tarmog'i so'nggi yillarda iqtisodiy o'sish, shaharsozlik, infratuzilma modernizatsiyasi, uy-joy qurilishi va investitsion faollikning muhim drayveri sifatida namoyon bo'lmoqda. Milliy statistika ma'lumotlariga ko'ra, **2025-yil yanvar-dekabr** oylarida respublikada 313 887,8 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilgan va bu **2024-yilga** nisbatan 14,2 foizga yuqori bo'lgan. **2026-yil yanvar-may** oylarida esa qurilish ishlari hajmi 104,9 trln so'mga yetib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 14,5 foizga oshgan. Ushbu raqamlar tarmoqda moliyaviy resurslar, shartnomaviy munosabatlar, korporativ nazorat va hisobdorlik mexanizmlarini kuchaytirish zarurati ortib borayotganini ko'rsatadi [10; 11].

Korporativ boshqaruvning zamonaviy talqini korxonani faqat aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilish tizimi sifatida emas, balki keng manfaatdor tomonlar o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi, axborot ochiqligini ta'minlovchi, risklarni boshqaruvchi va barqaror rivojlanishga xizmat qiluvchi institutsional mexanizm sifatida tushunishni taqozo etadi. OECD/G20 korporativ boshqaruv tamoyillarida huquqlar, teng munosabat, axborotni oshkor etish, kengash mas'uliyati va kapital bozorlari bilan bog'liq masalalar korporativ boshqaruvning asosiy yo'nalishlari sifatida belgilangan [1]. IFC korporativ boshqaruv metodologiyasi esa kompaniyalar, investorlar va siyosat ishlab chiquvchilar uchun korporativ boshqaruv amaliyotini baholash va takomillashtirish vositasi sifatida qo'llanishi mumkinligini qayd etadi [2].

Qurilish korxonalari amaliyotida korporativ boshqaruvni joriy etish masalasi bir necha muammolar bilan bog'liq. Birinchidan, loyiha siklida ishtirokchilar ko'pligi sababli qaror qabul qilish va mas'uliyat taqsimoti har doim ham aniq bo'lmaydi. Ikkinchidan, smeta, shartnoma, muddat, sifat, xavfsizlik va moliyalashtirish jarayonlari o'zaro bog'liq bo'lgani uchun ichki nazorat tizimi zaif bo'lsa, xarajatlar oshishi va loyiha samaradorligi pasayishi mumkin. Uchinchidan, raqamli boshqaruv vositalari, BIM, ERP, elektron hujjat aylanishi va loyiha monitoringi tizimlarining yetarlicha integratsiya qilinmagani axborot asimmetriyasini kuchaytiradi.

Mazkur maqolaning maqsadi korporativ boshqaruv mexanizmlarining ishlash tamoyillarini nazariy jihatdan asoslash, ularning qurilish korxonalari xususiyatlariga mos tarkibiy elementlarini tizimlashtirish hamda amaliyotga joriy etish bo'yicha mualliflik modeli va baholash mezonlarini ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun korporativ boshqaruvning nazariy asoslari tahlil qilindi, qurilish korxonalarida korporativ boshqaruvni joriy etishga ta'sir etuvchi omillar guruhlandi, statistik ma'lumotlar asosida tarmoqda boshqaruv talablari ortishi asoslandi va amaliy tavsiyalar shakllantirildi. Tadqiqot **obyekti** sifatida qurilish korxonalarida korporativ boshqaruv jarayonlari, **predmeti** sifatida esa korporativ boshqaruv mexanizmlarining ishlash tamoyillari, institutsional elementlari va joriy etish shartlari qaraldi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Korporativ boshqaruv nazariyasi agentlik nazariyasi, manfaatdor tomonlar nazariyasi, resurslarga asoslangan yondashuv, institutsional nazariya va strategik boshqaruv konsepsiyalariga tayanadi. Agentlik nazariyasida korporativ boshqaruv mulkdorlar va menejerlar o'rtasidagi manfaatlar ziddiyatini kamaytirish, nazorat va rag'batlantirish mexanizmlari orqali agentlik xarajatlarini pasaytirish vositasi sifatida izohlanadi. Manfaatdor tomonlar nazariyasi esa korxonaning muvaffaqiyati aksiyadorlar bilan bir qatorda xodimlar, buyurtmachilar, jamoatchilik, moliya institutlari, davlat organlari va atrof-muhit manfaatlarini hisobga olishga bog'liqligini ta'kidlaydi. Qurilish sohasi uchun ikkinchi yondashuv ayniqsa muhim, chunki qurilish mahsuloti uzoq muddat xizmat qiladi va uning ijtimoiy-ekologik ta'siri yuqori bo'ladi.

OECD/G20 tamoyillari korporativ boshqaruvni samarali bozor iqtisodiyoti, kapitalga kirish imkoniyati, investorlar ishonchi va kompaniyaning uzoq muddatli barqarorligi bilan bog'laydi. Ushbu tamoyillardan kelib chiqib, korporativ boshqaruvni joriy etishda huquqiy asoslar, aksiyadorlar va boshqa investorlar huquqlari, institutsional investorlar faolligi, axborotni oshkor etish, kengash mas'uliyati va barqarorlik bilan bog'liq risklarni nazorat qilish bir butun tizim sifatida qoraladi [1]. IFC metodologiyasida korporativ boshqaruv amaliyotini baholashda direktorlar kengashi, nazorat muhiti, axborotni oshkor etish, minoritar investorlar huquqlari va manfaatdor tomonlar bilan munosabatlar kabi mezonlar alohida ahamiyat kasb etadi [2].

Xorijiy tadqiqotlarda korporativ boshqaruv mexanizmlarining firma samaradorligiga ta'siri bo'yicha yagona xulosa mavjud emas. Kyere va Ausloos korporativ boshqaruv mexanizmlarini direktorlar kengashi, mulkchilik tuzilmasi va moliyaviy natijalar bilan bog'lab o'rgangan holda, boshqaruv mexanizmlari to'g'ri tanlangan taqdirda korxona moliyaviy ko'rsatkichlarini yaxshilashi mumkinligini ta'kidlaydi [3]. Wang tomonidan olib borilgan tadqiqotda esa direktorlar kengashi xususiyatlari va mulkchilik tuzilmasi rivojlanayotgan bozorlarda firma samaradorligiga ta'sir etuvchi muhim omil sifatida qoraladi [4]. Bu yondashuvlar korporativ boshqaruvni universal qolipda emas, balki tarmoq, bozor va institutsional muhit xususiyatlaridan kelib chiqib baholash zarurligini ko'rsatadi.

Qurilish sohasiga bag'ishlangan ilmiy ishlarda korporativ boshqaruv, loyiha boshqaruvi va shartnomaviy munosabatlar o'rtasidagi bog'liqlik alohida ta'kidlanadi. Velinov qurilish kompaniyalarida korporativ boshqaruvni

xalqaro qurilish industriyasining global xususiyatlariga moslashtirish zarurligini ta'kidlab, tarmoqda halollik, mas'uliyat va ishtirokchilar o'rtasida ishonch institutsional asos bo'lib xizmat qilishini ko'rsatadi [5]. Hadi va Hussain Polsha qurilish kompaniyalari misolida direktorlar kengashi tarkibi, mulkchilik konsentratsiyasi va korporativ boshqaruvning firma natijalariga ta'sirini o'rganadi [6]. Demagistris va hammualliflar qurilish loyihalari boshqaruvida raqamli texnologiyalar, xususan, aqlli shartnomalar va raqamli to'lov monitoringi imkoniyatlarini tahlil qilib, shartnoma ijrosi va to'lov intizomida raqamlashtirish boshqaruv shaffofligini oshirishini asoslaydi [7].

So'nggi yillarda korporativ boshqaruv va ESG integratsiyasiga oid tadqiqotlar jadal rivojlandi. Hu va hammualliflar korporativ ESG qurilishi mintaqaviy yashil iqtisodiyot samaradorligiga ta'sir ko'rsatishini signallar uzatish va manfaatdor tomonlar nazariyalari asosida asoslaydi [8]. Martiny va hammualliflar ESG natijalarini belgilaydigan ichki va tashqi omillar turlicha bo'lishi, tadqiqotlardagi ziddiyatlar ko'pincha o'lchash metodikasi, tarmoq xususiyati va institutsional muhit farqlari bilan bog'liqligini ko'rsatadi [9]. Qurilish korxonalarida ESG tamoyillarini joriy etish ekologik resurs tejamkorligi, mehnat xavfsizligi, sifat nazorati va korporativ hisobdorlik bilan bevosita bog'liq.

Adabiyotlar tahlilidan kelib chiqib, mazkur maqolada korporativ boshqaruv mexanizmlari qurilish korxonasida strategik qaror qabul qilish, resurslar taqsimoti, ichki nazorat, axborotni oshkor etish, manfaatdor tomonlar bilan munosabatlar, risklarni boshqarish va ESG natijalarini ta'minlovchi o'zaro bog'liq elementlar tizimi sifatida talqin etiladi. Ilmiy bo'shliq shundan iboratki, qurilish tarmog'ida korporativ boshqaruvning umumiy tamoyillari ko'pincha alohida huquqiy yoki moliyaviy masala sifatida qaraladi, holbuki amaliyotda u loyiha boshqaruvi, shartnomaviy intizom, raqamlashtirish, sifat va xavfsizlik bilan integratsiyalashgan mexanizm sifatida ishlashi lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida mavzuga oid institutsional va dinamik tahlil, mantiqiy taqqoslash, umumlashtirish, ilmiy mushohada, tizimli yondashuv, statistik hamda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Shuningdek, korporativ boshqaruv samaradorligini baholashda mezonlar tizimi va integral indeksni shakllantirish bo'yicha mualliflik yondashuvi taklif etildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Korporativ boshqaruv mexanizmi deganda korxonada mulkdorlar, boshqaruv organlari, ijroiya rahbariyati, xodimlar va tashqi manfaatdor tomonlar o'rtasida huquq, vakolat, javobgarlik hamda axborot oqimlarini tartibga soluvchi tashkiliy-iqtisodiy, huquqiy-institutsional va axborot-nazorat vositalari majmui tushuniladi. Uning ishlash tamoyillari shaffoflik, hisobdorlik, adolatli munosabat, strategik yo'naltirilganlik, risklarni boshqarish, manfaatdor tomonlar bilan muvofiqlik va uzoq muddatli qiymat yaratish g'oyalariga asoslanadi. Qurilish korxonalarida ushbu mexanizmlar obyekt hayotiy sikli, loyihalash, smetalash, pudrat, ta'minot, qurilish-montaj ishlari, texnik nazorat, qabul qilish va ekspluatatsiyaga topshirish jarayonlari bilan bevosita bog'lanadi.

Qurilish tarmog'ida korporativ boshqaruvning iqtisodiy mazmuni shundaki, u resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi, kapital aylanishini tezlashtiradi, shartnomaviy intizomni kuchaytiradi va loyihalar bo'yicha xarajatlarni nazorat qilish imkonini beradi. Ijtimoiy mazmuni esa mehnat xavfsizligi, ishchilar malakasi, manfaatdor tomonlar bilan muloqot va aholi uchun qulay infratuzilma yaratish bilan bog'liq. Institutsional mazmuni huquqiy normalar, korporativ hujjatlar, ichki reglamentlar va tashqi nazorat organlari talablarini yagona boshqaruv arxitekturasiga birlashtirishda namoyon bo'ladi.

Korporativ boshqaruv mexanizmlarining ishlash tamoyillaridan biri mas'uliyat va vakolatlar muvozanatini ta'minlashdir. Qurilish korxonasida strategik qarorlar direktorlar kengashi yoki muassislar darajasida qabul qilinishi, loyiha portfeli va investitsiya ustuvorliklari aniqlanishi, ijroiya rahbariyati esa belgilangan strategiyani moliyaviy, texnik va tashkiliy rejalar orqali amalga oshirishi lozim. Agar vakolatlar aniq taqsimlanmasa, loyiha qiymati oshishi, muddatlar kechikishi, subpudratchilar bilan nizolar va moliyaviy intizom buzilishi ehtimoli ortadi.

Ikkinchi muhim tamoyil axborot shaffofligi va hisobdorlikdir. Qurilish korxonasida axborot faqat moliyaviy hisobot bilan cheklanmasligi, balki loyiha muddati, smeta o'zgarishi, materiallar narxi, texnika va mehnat resurslari yuklamasi, sifat nazorati, mehnat xavfsizligi, ekologik ta'sir va shartnoma ijrosi bo'yicha ma'lumotlarni ham qamrab olishi kerak. Axborot asimmetriyasi qanchalik yuqori bo'lsa, agentlik xarajatlari, korrupsiyaviy risklar va noto'g'ri qarorlar ehtimoli shunchalik ortadi.

To'rtinchi tamoyil manfaatdor tomonlar bilan muvozanatli munosabat o'rnatishdir. Qurilish korxonasi uchun buyurtmachi, investor, davlat organlari, banklar, loyihachi tashkilotlar, material yetkazib beruvchilar, subpudratchilar, xodimlar va obyektidan foydalanuvchilar alohida manfaat egalari. Korporativ boshqaruv ushbu manfaatlarining ziddiyatli jihatlarini ochiq shartnomalar, texnik reglamentlar, etika kodeksi, kelishuv



mexanizmlari va nizolarni hal etish tartibi orqali muvofiqlashtiradi.

Qurilish korxonalarida korporativ boshqaruv mexanizmlari ichki va tashqi bloklardan iborat bo'ladi. Ichki blokka mulkchilik tuzilmasi, direktorlar kengashi, ijroiya organi, ichki audit, risk-menejment, moliyaviy nazorat, korporativ kotibiyat, etika va komplaens, loyiha ofislari kiradi. Tashqi blokka esa qonunchilik, sud-huquq tizimi, litsenziyalash va texnik tartibga solish, banklar, investorlar, reyting va audit tashkilotlari, buyurtmachilar, jamoatchilik nazorati hamda bozor raqobati kiradi. Ushbu bloklar bir-biridan ajralgan holda emas, balki yagona institutsional muhitda ishlaganda samara beradi(1-jadval).

1-jadval.

Qurilish korxonalarida korporativ boshqaruv mexanizmlarining tarkibiy elementlari va vazifalari

Tarkibiy element	Asosiy vazifasi	Qurilish korxonasida namoyon bo'lishi	Kutiladigan ta'sir
Direktorlar kengashi / muassislar nazorati	Strategiya, investitsiya va risklar bo'yicha qarorlarni belgilash	Loyiha portfeli, yirik shartnomalar, qarz yuki va kapital qo'yilmalarni tasdiqlash	Uzoq muddatli rivojlanish va mas'uliyatli qarorlar
Ijroiya boshqaruv	Strategiyani amaliy rejalarga aylantirish	Smeta, ish grafigi, resurslar, subpudrat va ta'minotni muvofiqlashtirish	Muddat, sifat va xarajatlar intizomi
Ichki audit va komplaens	Qonunchilik, ichki reglament va moliyaviy intizomga rioyati tekshirish	Xaridlar, to'lovlar, shartnomalar, texnika xavfsizligi va hisobotlarni nazorat qilish	Korrupsion va moliyaviy risklarni kamaytirish
Risk-menejment	Ichki va tashqi risklarni identifikatsiya qilish va boshqarish	Narx o'zgarishi, kechikishlar, sud nizolari, mehnat xavfsizligi va ta'minot uzilishlarini baholash	Barqarorlik va prognozlash imkoniyati
Axborot oshkor etish	Manfaatdor tomonlarga ishonchli ma'lumot taqdim etish	Moliyaviy hisobot, loyiha holati, ESG, sifat va xavfsizlik ma'lumotlarini ochish	Investorlar va buyurtmachilar ishonchini oshirish
Raqamli boshqaruv vositalari	Ma'lumotlarga asoslangan tezkor qaror qabul qilish	BIM, ERP, elektron hujjat aylanishi, elektron xarid va dashboardlardan foydalanish	Shaffoflik, tezkorlik va nazorat kuchayishi
Manfaatdor tomonlar bilan muloqot	Ishtirokchilar manfaatlarini muvofiqlashtirish	Buyurtmachi, subpudratchi, bank, davlat organi va aholi bilan reglamentlashgan aloqa	Nizolar kamayishi va ijtimoiy ishonch

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, korporativ boshqaruv mexanizmlari faqat yuqori boshqaruv organlari bilan cheklanmaydi. Ular loyiha darajasidagi amaliy jarayonlarga ham kirib boradi. Masalan, direktorlar kengashining investitsiya bo'yicha qarori smeta intizomi, to'lov grafigi va risk-menejment tizimi bilan bog'lanmasa, strategik qaror amaliy natija bermaydi. Shuning uchun qurilish korxonalarida korporativ boshqaruvni joriy etishda «**korporativ markaz – loyiha ofisi – ishlab chiqarish maydoni – tashqi manfaatdor tomonlar**» zanjiri bo'yicha yagona hisobdorlik tizimi shakllantirilishi lozim.

Korporativ boshqaruv mexanizmlariga ta'sir etuvchi omillarni ichki va tashqi guruhlariga ajratish mumkin. Ichki omillar qatoriga mulkchilik tuzilmasi, boshqaruv organlari malakasi, moliyaviy intizom, korxona hajmi, loyihalar soni, ichki audit mavjudligi, raqamli tizimlar darajasi va korporativ madaniyat kiradi. Tashqi omillar esa qonunchilik, davlat nazorati, kapital bozori, bank kreditlari, materiallar narxi, raqobat muhiti, mehnat bozori, shaharsozlik talablari va ekologik standartlar bilan bog'liq. Ushbu omillar korporativ boshqaruvning amaliy ishlashiga turli kanallar orqali ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston qurilish tarmog'i dinamikasi korporativ boshqaruv masalasining dolzarbligini yanada kuchaytiradi. Qurilish ishlari hajmining o'sishi korxonalar oldiga nafaqat ko'proq obyekt qurish, balki loyihalarni moliyaviy barqaror, shaffof va sifatli boshqarish vazifasini ham qo'yadi. **2020–2025-yillar** dinamikasida qurilish ishlari hajmi 88,1 trln so'mdan 313,9 trln so'mgacha oshgan. Bunday o'sish sharoitida korporativ nazorat, hisobdorlik va risk-menejment tizimlari ortda qolsa, tarmoqda resurslar samarasiz sarflanishi, qarzdorlik, sifat muammolari va shartnoma nizolari kuchayishi mumkin(2-jadval).

2-jadval.


O'zbekiston Respublikasida qurilish ishlari hajmining dinamikasi

Yil/davr	Qurilish ishlari hajmi	O'sish sur'ati	Korporativ boshqaruv nuqtai nazaridan talqin
2020	88 130,3 mlrd.so'm	109,5 %	Tarmoqda o'sish, lekin raqamli nazorat talablari hali cheklangan
2021	107 492,7 mlrd.so'm	106,8 %	Loyihalar hajmi ortishi boshqaruv jarayonlarini tizimlashtirishni talab etdi
2022	130 790,9 mlrd.so'm	106,6 %	Investitsiya va pudrat munosabatlarida hisobdorlik ahamiyati kuchaydi
2023	202 819,2 mlrd.so'm	107,0 %	Tarmoqda moliyaviy resurslar va shartnoma intizomi muhimlashdi
2024	233 832,9 mlrd.so'm	108,8 %	Yirik, kichik va norasmiy sektor o'rtasida korporativ nazorat farqlari saqlandi
2025	313 887,8 mlrd.so'm	114,2 %	Boshqaruv shaffofligi, risk-menejment va ESG talablari strategik ahamiyatga ega bo'ldi
2026 yanvar–may	104,9 trln.so'm	114,5 %	Tez o'sish davrida loyihalar portfelini korporativ darajada baholash zarurati ortadi

Statistik ma'lumotlar tarmoqda miqdoriy o'sishning barqarorligini ko'rsatadi, ammo korporativ boshqaruv nuqtayi nazaridan asosiy masala o'sishning sifati hisoblanadi. Qurilish ishlari hajmi ko'paygan sari korxonalarda pul oqimlari, materiallar harakati, shartnoma majburiyatlari va loyiha risklari ham murakkablashadi. Shuning uchun korporativ boshqaruv mexanizmlari o'sishni boshqarish, resurslar samaradorligini baholash va manfaatdor tomonlarga ishonchli hisobot berish vazifasini bajarishi lozim.

Qurilish korxonalarida korporativ boshqaruvni joriy etishni bosqichma-bosqich amalga oshirish maqsadga muvofiq. Birinchi bosqichda korporativ hujjatlar, vakolatlar matritsasi, ichki reglamentlar va etika kodeksi shakllantiriladi. Ikkinchi bosqichda direktorlar kengashi yoki muassislar nazorati, ijroiya organi, ichki audit va risk-menejment funksiyalari aniq ajratiladi. Uchinchi bosqichda BIM, ERP, elektron hujjat aylanishi va loyiha monitoringi tizimlari integratsiya qilinadi. To'rtinchi bosqichda korporativ boshqaruv natijalari samaradorlik mezonlari, ESG ko'rsatkichlari va manfaatdor tomonlarning qoniqishi orqali baholanadi.

Mualliflik yondashuviga ko'ra, qurilish korxonasida korporativ boshqaruv mexanizmi beshta o'zaro bog'liq blokdan iborat bo'lishi lozim: institutsional asoslar, strategik boshqaruv, nazorat va risk-menejment, raqamli axborot muhiti, ESG va manfaatdor tomonlar bilan munosabatlar. Ushbu bloklarning har biri alohida ishlashi mumkin, ammo ular integratsiyalashgan holda korxona samaradorligiga tizimli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, raqamli axborot muhiti ichki nazoratga ma'lumot beradi, risk-menejment strategik qararlarni asoslaydi, ESG esa investorlar va jamoatchilik ishonchini kuchaytiradi (1-rasm).



1-rasm. Qurilish korxonalarida korporativ boshqaruv mexanizmlarini joriy etishning konseptual modeli

Taklif etilayotgan model korporativ boshqaruvni statik reglamentlar to'plami sifatida emas, balki qaror qabul qilish, axborot almashish, nazorat qilish va natijalarni baholash jarayonlarini birlashtiruvchi dinamik tizim



sifatida talqin etadi. Modelda institutsional asoslar boshlang'ich shartlar hisoblanadi, korporativ boshqaruv mexanizmlari esa ularni amaliy jarayonlarga aylantiradi. Raqamli axborot va shaffoflik bloki nazorat, audit va risk-menejment uchun ma'lumotlar bazasini yaratadi. Manfaatdor tomonlar va ESG bloklari esa korxonaning tashqi muhit bilan uzoq muddatli ishonch munosabatlarini ta'minlaydi.

Korporativ boshqaruv natijalarini baholashda faqat moliyaviy ko'rsatkichlar bilan cheklanish yetarli emas. Qurilish korxonasida samaradorlik moliyaviy natija, loyiha muddati, sifat, xavfsizlik, shartnoma intizomi, shaffoflik, risklar darajasi va manfaatdor tomonlarning qoniqishi bilan o'lchanishi lozim(3-jadval).

3-jadval.

Qurilish korxonalarida korporativ boshqaruv samaradorligini baholash mezonlari

Mezon	O'lchash ko'rsatkichi	Ma'lumot manbai	Baholash yo'nalishi
Moliyaviy barqarorlik	Likvidlik, qarz yuki, rentabellik, pul oqimi	Moliyaviy hisobotlar	Investitsion barqarorlik va to'lov qobiliyati
Loyiha intizomi	Muddat, smeta, ish hajmi bajarilishi	Loyiha grafigi, smeta, aktlar	Muddat va xarajatlar nazorati
Ichki nazorat	Audit xulosalari, aniqlangan kamchiliklar soni	Ichki audit va komplaens hisobotlari	Xato va qonunbuzilishlarni kamaytirish
Risk-menejment	Risk reestri, yumshatish choralari, sug'urta qamrovi	Risk kartasi, shartnomalar	Noaniqlikni pasaytirish
Axborot shaffofligi	Hisobotlar davriyligi, ma'lumotlar ochiqqligi	Korporativ veb-sayt, hisobotlar	Ishonch va hisobdorlik
ESG muvofiqlik	Energiya, chiqindi, xavfsizlik, mehnat muhofazasi	ESG va texnik hisobotlar	Barqaror rivojlanish
Manfaatdor tomonlar qoniqishi	Shikoyatlar, so'rovnomalar, nizolar soni	CRM, shartnoma monitoringi	Ijtimoiy ishonch va hamkorlik

Olib borilgan tahlillar korporativ boshqaruv mexanizmlarini qurilish korxonalari amaliyotiga joriy etish tarmoq samaradorligini oshirish uchun zarur institutsional shart ekanini ko'rsatdi. Qurilish ishlari hajmining yuqori sur'atlarda o'sishi korporativ boshqaruvga bo'lgan talabni kuchaytiradi, chunki tarmoqda miqdoriy kengayish bilan birga moliyaviy, tashkiliy, texnologik va ijtimoiy risklar ham ortib boradi. Shu nuqtayi nazardan, korporativ boshqaruvni joriy etish korxona ichida tartib-intizom o'rnatish bilan cheklanmay, butun loyiha zanjirida ishonch, shaffoflik va mas'uliyatni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Maqolada taklif etilgan yondashuv mavjud nazariy qarashlardan shu jihati bilan farq qiladiki, unda korporativ boshqaruv mexanizmlari qurilish korxonalari uchun maxsuslashtirilgan tarkibiy bloklar orqali talqin etiladi. Klassik korporativ boshqaruv nazariyalarida asosiy e'tibor mulkdorlar va menejerlar o'rtasidagi munosabatlarga qaratiladi. Qurilish korxonalarida esa munosabatlar doirasi ancha keng: buyurtmachi, loyihachi, subpudratchi, bank, davlat nazorati, texnik nazorat va obyektidan foydalanuvchi tomonlar ham boshqaruv natijasiga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli korporativ boshqaruvning qurilish sohasiga mos modeli manfaatdor tomonlar yondashuvi bilan boyitilishi lozim.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, qurilish korxonalarida korporativ boshqaruvning samarali ishlashi uchun uchta shart ustuvor ahamiyatga ega. Birinchi shart - vakolatlar va javobgarliklar matritsasini aniq belgilash. Ikkinchi shart - moliyaviy, texnik va shartnomaviy ma'lumotlarni yagona raqamli muhitda yig'ish va tahlil qilish. Uchinchi shart - ichki audit, risk-menejment va ESG hisobdorligini strategik boshqaruv bilan bog'lash. Ushbu shartlar ta'minlanmasa, korporativ boshqaruv qog'ozda mavjud bo'lgan, amaliyotda esa qarorlar sifatiga ta'sir qilmaydigan formal tizimga aylanib qolishi mumkin.

Muhokama jarayonida yana bir muhim xulosa shakllandi: korporativ boshqaruv mexanizmlarini joriy etishni bir martalik tashkiliy islohot sifatida emas, balki bosqichma-bosqich institutsionallashtirish jarayoni sifatida qarash lozim. Avval korporativ reglamentlar va mas'uliyatlar tizimi yaratiladi, keyin nazorat va risk-menejment mexanizmlari ishga tushiriladi, so'ngra raqamli platformalar orqali ma'lumotlar integratsiya qilinadi va yakunda natijalar ko'p mezonli baholash tizimi orqali monitoring qilinadi. Bu yondashuv qurilish korxonalarida boshqaruv madaniyatini bosqichma-bosqich o'zgartirish imkonini beradi.

Taklif etilgan integral indeks korporativ boshqaruvni faqat aksiyadorlar huquqi yoki moliyaviy hisobot bilan emas, balki loyiha samaradorligi, ichki nazorat, risklar, ESG va manfaatdor tomonlar munosabatlari bilan birgalikda baholash imkonini beradi. Bu, ayniqsa, yirik qurilish korxonalari, developerlik tashkilotlari, loyiha-pudrat kompaniyalari va davlat buyurtmalarida ishtirok etuvchi subyektlar uchun muhim. Indeks natijalari asosida korxonada qaysi yo'nalish zaif ekani aniqlanadi va boshqaruv islohotlari maqsadli ravishda amalga

oshiriladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Korporativ boshqaruv qurilish korxonalarida strategik qaror qabul qilish, resurslardan samarali foydalanish, shartnoma intizomi, ichki nazorat va manfaatdor tomonlar bilan ishonchli munosabatlarni ta'minlovchi muhim institutsional mexanizm hisoblanadi.

Qurilish tarmog'ining ko'p ishtirokchiligi va loyiha siklining murakkabligi korporativ boshqaruvni faqat mulkdorlar va menejerlar o'rtasidagi munosabatlar emas, balki butun loyiha zanjiridagi subyektlar manfaatlarini muvofiqlashtiruvchi tizim sifatida qarashni talab etadi.

O'zbekistonda qurilish ishlari hajmining tez o'sishi tarmoqda korporativ nazorat, axborot shaffofligi, risk-menejment, ichki audit va ESG hisobdorligini kuchaytirish zaruratini obyektiv ravishda oshirmoqda.

Qurilish korxonalarida korporativ boshqaruv mexanizmlarini joriy etish institutsional asoslar, strategik boshqaruv, ichki nazorat, risk-menejment, raqamli axborot muhiti va manfaatdor tomonlar bilan munosabatlar bloklarining o'zaro integratsiyasi orqali amalga oshirilishi lozim.

Korxonalarda vakolatlar va javobgarliklar matritsasi, etika kodeksi, ichki audit reglamenti, risk reyestri, shartnomaviy nazorat tartibi va axborotni oshkor etish siyosati ishlab chiqilishi korporativ boshqaruvni formal emas, amalda ishlaydigan tizimga aylantiradi.

Raqamli texnologiyalar, jumladan, BIM, ERP, elektron hujjat aylanishi, elektron xaridlar va loyiha monitoringi platformalari korporativ boshqaruvning shaffoflik va tezkor nazorat imkoniyatlarini kuchaytiradi. Shu sababli raqamlashtirish korporativ boshqaruv islohotlarining ajralmas qismi sifatida qaralishi kerak.

Maqolada taklif etilgan korporativ boshqaruv samaradorligi indeksi qurilish korxonasi faoliyatini moliyaviy barqarorlik, tashkiliy muvofiqlik, ichki nazorat, risk-menejment, axborot shaffofligi, ESG va manfaatdor tomonlar munosabatlari bo'yicha kompleks baholash imkonini beradi.

Amaliy jihatdan qurilish korxonalarida korporativ boshqaruvni bosqichma-bosqich joriy etish, avval ichki reglament va nazorat tizimini shakllantirish, keyin raqamli boshqaruv vositalarini integratsiya qilish va yakunda ESG hamda ko'p mezonli baholash tizimini joriy etish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. OECD. G20/OECD Principles of Corporate Governance 2023. – Paris: OECD Publishing, 2023. – DOI: 10.1787/ed750b30-en.
2. International Finance Corporation. IFC Corporate Governance Methodology. – Washington, DC: IFC, 2023.
3. Kyere M., Ausloos M. Corporate Governance and Firms Financial Performance in the United Kingdom // International Journal of Finance & Economics. – 2021. – Vol. 26. – Issue 2. – P. 1871–1885.
4. Wang Y. Corporate governance mechanisms and firm performance: evidence from the emerging market following the revised CG code // Corporate Governance. – 2019. – Vol. 19. – Issue 2. – P. 201–222.
5. Velinov E. Corporate Governance in Construction Companies in Central and Eastern Europe // Mechanics Transport Communications. – 2014. – Vol. 12. – Issue 3. – P. 1–8.
6. Hadi A. R. A., Hussain H. I. Corporate Governance, High Net-Worth Construction Companies and Firm's Performance: Evidence from Warsaw Stock Exchange in Poland // Journal of Engineering and Applied Sciences. – 2018. – Vol. 13. – Issue 6. – P. 1397–1402.
7. Demagistris P. E., Petruzzini S., Pampaloni R., De Marco A., Khan W., Ottaviani F. M. Digital Enablers of Construction Project Governance. – 2022. – arXiv:2205.05930.
8. Hu A., Yuan X., Fan S., Wang S. The Impact and Mechanism of Corporate ESG Construction on the Efficiency of Regional Green Economy // Sustainability. – 2023. – Vol. 15. – Article 13236.
9. Martiny A., Tagliatalata J., Testa F., Iraldo F. Determinants of environmental, social and governance performance: A systematic literature review // Journal of Cleaner Production. – 2024. – Vol. 456. – Article 142319.
10. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasida bajarilgan qurilish ishlari: 2025 yil yanvar–dekabr ma'lumotlari. – Toshkent, 2026.
11. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. The volume of construction work in Uzbekistan increased by 14.5%. – 2026 yil 1 iyul.
12. European Bank for Reconstruction and Development. Corporate Governance in Transition Economies: Uzbekistan Summary Report. – London: EBRD.
13. Abduraupov R., Makhkamov S. Corporate Governance Scorecard for Uzbek Joint-Stock Companies // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2021. – №1.
14. O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni. – lex.uz.
15. O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonuni. – lex.uz.



16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida". – lex.uz.

17. Karimov I. O. Corporate governance and institutional development in construction enterprises: theoretical approaches // Scientific Journal of Economics and Management. – 2024. – №4. – P. 72–80.

18. Arifdjanova Z. D. Assessing the Improvement of Management Efficiency in Construction Companies // American Journal of Economics and Business Management. – 2024. – Vol. 7. – No. 12. – P. 1337–1343. – DOI: 10.31150/ajebm.v7i12.3110.

19. World Bank. Uzbekistan Country Economic Memorandum: From Policy Reform to Growth. – Washington, DC: World Bank, 2025.

20. COSO. Enterprise Risk Management: Integrating with Strategy and Performance. – New York: Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission, 2017.



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100